

FILIALIMIZ FAXRI

2019 yilning 16 yanvar kuni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda vazirlik huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan ilk marotaba o'tkazilgan "Yil talabasi" tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tanlov oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida 3 bosqichda o'tkazilib, unda jami 316 nafar yoshlar ishtirok etdi. Tanlovning **"Yilning ixtirochi talabasi" nominatsiyasida faxrli** 1-o'rinni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filiali "Gidrotexnika qurilishi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi Ravshanov Umid Xalil o'g'li egalladi. Ushbu yutuq bilan Ravshanov Umidni barcha professor-o'qituvchilar va talabalar nomidan muborakbod etib, uning kelajakdagi faoliyatida ulkan zafarlar tilab qolamiz. Filialimiz faxri bo'lgan Ravshanov Umidjon Xalil o'g'liga tegishli ma'lumotlarni keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

1993 yil, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanida tug'ulgan. Ma'lumoti tugallanmagan oliy. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Buxoro filiali talabasi, 2016 yil "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashkil topganligining 15 yilligi munosabati bilan "Kamolot-sen tayanchim, ahdim, suyanchim!" shiori ostida yoshlar festivalida faol ishtirok etganligi hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda tashabbuskorligi bilan namuna ko'rsatganligi uchun Faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

2017 yil 14 yanvar "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan

"O'zbekiston - mustaqil Vatanimiz, milliy armiyamiz faxr-u g'ururimiz" shiori ostidagi yoshlar harbiy vatanparvarlik festivalini yuqori saviyada tashkillashtirishda qo'shgan ulkan hissasi uchun "Tashakkurnoma" bilan taqdirlangan. 2017 yil "Chizma geometriya va chizmachilik" fanidan o'tkazilgan Respublika fan olimpiadasida faol ishtiroki uchun Faxriy yorliq bilan taqdirlangan. 2017 yil "Biz chempion" shiori ostida yo'l to'sig'idan o'tishda jamoalar va individual ishtirokchilar o'rtasidagi an'anaviy "Mega sport" musobaqasida yaqindan hamkorlik qilganligi uchun Tashakkurnoma bilan taqdirlangan. 2017 yil "Yosh Fermerlar 2017" Respublika ko'rik-tanlovining Buxoro viloyat bosqichini o'tkazishda faol ishtiroki uchun Tashakkurnoma bilan taqdirlangan.

2018 yil "Mening mahallamda jinoyat bo'lmasligi kerak" shiori ostida Buxoro shaxar IIB profilaktika inspektorlariga ko'maklashib yurtimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi uchun o'zining munosib hissasini qo'shayotgan "Jasorat" klubi a'zosi sifatida Faxriy yorliq bilan taqdirlangan. 2018 yil Talabalarning innovatsion g'oyalar va texnologiyalar yarmarkasida faol ishtiroki uchun 2-darajali Diplom bilan taqdirlangan. 2018 yil "O'zbekiston yoshlar buzg'unchi g'oyalarga qarshi" shiori ostida o'tkazilgan maqolalar tanlovida faol ishtiroki uchun Tashakkurnoma bilan taqdirlangan. 2018 yil "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" stipendiyasining Respublika bosqichi ishtirokchisi.

2018 yil 17 noyabr 2017-2018 o'quv yili uchun "Yil talabasi" Respublika ko'rik tanlovining "Yilning ixtirochi talabasi" nominatsiyasi bo'yicha 1-o'rin sohibi. Uning ilmiy-amaliy anjumanlarda 6 ta, halqaro konferensiya va jurnallarda 6 ta, 1 ta o'quv-uslubiy ko'rsatmalari chop etilgan. Institutimiz jamoasi nomidan filialimiz faxrini samimiy tabriklaymiz va unga yangidan yangi omadlar tilab qolamiz.



INSTITUT MATBUOT KOTIBI RAHIMBOY JUMANIYOZOV